ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8(3)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 38 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari ........ 10
**Sultanov Xaytboy Eraliyevich**

Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi ........ 14
**Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi**

Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida.... 19
**Tengelbayeva Dinora Muratovna**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari........ 25
**Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna**

Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni........ 30
**Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li**

Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intellektual transfer" mediatsiyasi........ 34
**K. B. Numanov**

# MEHNAT MIGRATSIYASI FENOMENI VA OILA DIALEKTIKASINING PEDAGOGIK ASPEKTLARI: TRANSLOKALLIK SHAROITIDA FARZAND TARBIYASI VA "INTELLEKTUAL TRANSFER" MEDIATSIYASI

K. B. Numanov
Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
Tashkiliy boshqarmasining yuridik masalalar boʻyicha boshligʻi oʻrinbosari, mayor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv va ommaviy mehnat migratsiyasi sharoitida oila institutida sodir boʻlayotgan transformatsiyalar hamda ularning yosh avlod tarbiyasi va shaxs rivojlanishiga pedagogik taʼsiri Andijon viloyatining empirik va statistik maʼlumotlari (104 417 nafar respondent koʻrsatkichlari) asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda mehnat migratsiyasining etnopedagogik dialektikasi, ota-onalarning uzoq muddatli migratsiyada boʻlishi natijasida yuzaga keluvchi "ijtimoiy yetimlik" xavf-xatarlari hamda mehnat migrantlarining "aktiv ijtimoiy va pedagogik kapital" egalariga aylanishi ("migratsion pedagogik transfer") jarayonlari yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** pedagogika nazariyasi, oilaviy tarbiya, etnopedagogika, mehnat migratsiyasi, translokallik, ijtimoiy yetimlik, inson kapitali, migratsion pedagogik transfer, gender transformatsiyasi.

**Abstract:** This article analyzes the transformations in the family institution and their pedagogical impact on the upbringing of the younger generation under the conditions of globalization and mass labor migration, using empirical and statistical data from the Andijan region (data from 104,417 respondents). The study reveals the socio-pedagogical dialectics of migration, the risks of "social orphanhood" due to long-term parental absence, and the transformation of migrants into holders of "active social and pedagogical capital" ("migratory pedagogical transfer").

**Key words:** pedagogical theory, family education, ethnopedagogy, labor migration, translocality, social orphanhood, human capital, migratory pedagogical transfer, gender transformation.

**Аннотация:** В данной статье на основе эмпирических и статистических данных Андижанской области (показатели 104 417 человек) анализируются трансформации в институте семьи и их педагогическое влияние на воспитание подрастающего поколения в условиях глобализации и массовой трудовой миграции. В исследовании раскрываются социально-педагогическая диалектика миграции, риски "социального сиротства" вследствие длительного отсутствия родителей, а также процессы формирования "активного социально-педагогического капитала" ("миграционный педагогический трансфер").

**Ключевые слова:** теория педагогики, семейное воспитание, этнопедагогика, трудовая миграция, транслокальность, социальное сиротство, человеческий капитал, миграционный педагогический трансфер, гендерная трансформация.

## KIRISH

Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyoti jamiyatning globallashuvi, ijtimoiy va demografik dinamikaning jadallashuvi sharoitida tarbiya jarayonlarining umumiy metodologik asoslarini qayta koʻrib chiqishni taqozo etmoqda.[1] Unda inson kapitalini rivojlantirish va oila institutini mustahkamlash masalasi markaziy oʻrin tutadi. Biroq ommaviy mehnat migratsiyasi omili milliy va etnopedagogik anʼanalarga ega boʻlgan oʻzbek oilasining tarbiyaviy funksiyalariga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatmoqda.

1 Бауман З. Глобализация. Последствия для человека и общества. – Москва: Весь Мир, 2004. – С. 81–85.

*Migratsiya* – tarbiya sub'ektlari va ob'ektlari o'rtasidagi makon-vaqt munosabatlarining o'zgarishi, oilaviy tarbiya tizimining "translokal" (ikki yoki undan ortiq madaniy-pedagogik muhit oralig'ida) xarakterga ega bo'lishidir.[2] Ota va (yoki) onaning uzoq muddat davomida oilada bo'lmasligi shaxsni ijtimoiylashtirishning an'anaviy etnopedagogik modellariga xavf tug'diradi. Natijada "ijtimoiy yetimlik" destruktiv fenomenini keltirib chiqaradi. Buning oqibatida migratsiyadan qaytgan shaxslarning yangi mehnat etikasi va innovatsion tajribani oilaga olib kirishi "pedagogik transfer" fenomenining yuzaga kelishini tezlashtiradi.[3]

**Tadqiqotning maqsadi:** Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi va translokallikning oila instituti tarbiyaviy imkoniyatlariga ta'sirini pedagogik-statistik tahlil qilish, oiladagi "ijtimoiy yetimlik" xavfini kamaytirish hamda migrantlarning to'plagan "ijtimoiy-pedagogik kapitali"ni yoshlar tarbiyasiga yo'naltirishning metodologik va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda pedagogika nazariyasi ixtisosligining metodologik tamoyillari asosida tizimli, aksiologik (qadriyatli), etnopedagogik va sinergetik yondashuvlardan foydalanildi.

**Empirik tadqiqot manbasi va tanlanma hajmi:** Tadqiqot bazasi sifatida Andijon viloyatining 16 ta tuman va shaharlari olindi. Tanlanma hajmi uzoq muddatda xorijda bo'lib turgan 104 417 nafar fuqaroning demografik va ijtimoiy-statistik ko'rsatkichlaridan iborat.

**Pedagogik-statistik va sotsiologik usullar:** Tadqiqot jarayonida migrantlarning yosh, gender, chiqib ketish muddatlari va maqsadlari bo'yicha ko'rsatkichlarini tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilish usullari qo'llanildi.

**Indikatorlar:** Yosh va pedagogik ta'sirchanlik ko'rsatkichi (18–30 yosh, 30–45 yosh, 45 yoshdan yuqori va 18 yoshgacha). Gender va tarbiyaviy funksiya transformatsiyasi ko'rsatkichi (erkaklar va ayollar nisbati). Vaqt davomiyligi va "translokallik" chuqurligi (3–6 oy, 6–12 oy va undan ortiq).

## TAHLIL VA NATIJALAR

Andijon viloyati bo'yicha to'plangan statistik va empirik ma'lumotlarni pedagogik nazariya nuqtai nazaridan tizimlashtirish quyidagi fundamental ko'rsatkichlarni namoyish etdi. Viloyat bo'yicha uzoq muddatga xorijda bo'lib turgan 104 417 nafar fuqarolarning 81,6 foizini (85 205 nafar) erkaklar va 18,4 foizini (19 212 nafar) ayollar tashkil etadi. Oilaning bosh tarbiyachilari bo'lmish otalar va onalarning oiladagi jismoniy yo'qligi bola tarbiyasida oilaviy subordinatsiya va etnopedagogik muhitning buzilishiga olib kelmoqda.4 Ayollar migratsiyasining ortishi (ayniqsa, Xonobod shahrida 1 315 nafar, Andijon shahrida 2 509 nafar) onalik pedagogikasi va erta yoshdagi bola ijtimoiylashuvida "pedagogik deprivatsiya" (e'tiborsizlik) omilini keltirib chiqarmoqda.

Migratsiyadagi aholining yosh taqsimoti pedagogik jihatdan muhim sanalgan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- **18–30 yoshgacha bo'lganlar:** 32 332 nafar (31%). Bu qatlam tarbiyaviy va reproduktiv potensiali yuqori bo'lgan, o'zlari ham hali uzluksiz ta'lim va kasbiy ko'nikmalarga muhtoj bo'lgan yoshlardir.[5]
- **30–45 yoshgacha bo'lganlar:** 45 424 nafar (43,5%). Pedagogik nuqtai nazardan ushbu qatlam o'z farzandlarini faol tarbiyalash (maktab va o'smirlik yoshida) davrini boshdan kechirayotgan ota-onalardir.
- **45 yoshdan yuqori va 18 yoshgacha:** Muvofiq ravishda 20 390 nafar (19,5%) va 6 271 nafar (6%). Hududlar kesimidagi tahlil eng yuqori migratsiya faolligi Shahrixon (14 315 nafar) va Asaka (12 607 nafar) tumanlariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

1-jadval: **Empirik tadqiqot va statistik tizimlashtirish natijasida viloyat tumanlaridagi migratsiya faolligining quyidagi manzarasi namoyon bo'ldi.**

| № | Tuman (shahar) nomi | Jami xorijdagilar (nafar) | Erkaklar (nafar) | Ayollar (nafar) | Ishlash maqsadida ketganlar (nafar) | 18-30 yoshgacha bo'lganlar (nafar) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Andijon shahri** | 10 398 | 7 889 | 2 509 | 7 810 | 2 920 |
| 2 | **Andijon tumani** | 5 186 | 4 330 | 856 | 4 353 | 1 544 |
| 3 | **Asaka tumani** | 12 607 | 10 741 | 1 866 | 10 216 | 4 040 |
| 4 | **Baliqchi tumani** | 5 448 | 4 670 | 778 | 4 722 | 1 454 |

2 Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. – Москва: Прогресс-Традиция, 2013. – 304 с.
3 Бўронов С.С. Глобаллашув шароитида Ўзбекистонда миграция жараёнларининг трансформацияси: Фалс. фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 18–22
4 Рязанцев С.В. Трудовая миграция в странах СНГ: тенденции и регулирование. – Москва: ИСПИ РАН, 2008. – С. 142–145.
5 Абдуллаев.Б.М. Меҳнат миграциясининг аҳоли демографик ва ёш тузилмасига таъсири (Андижон вилояти мисолида) // Ижтимоий фикр. – Тошкент, 2022. – № 3. – Б. 56.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | **Bo'ston tumani** | 2 590 | 2 071 | 519 | 2 080 | 733 |
| 6 | **Buloqboshi tumani** | 4 845 | 3 932 | 913 | 4 116 | 1 411 |
| 7 | **Jalaquduq tumani** | 6 012 | 4 956 | 1 056 | 5 014 | 1 740 |
| 8 | **Izboskan tumani** | 7 579 | 6 235 | 1 344 | 6 364 | 2 110 |
| 9 | **Qo'rg'ontepa tumani** | 7 241 | 5 835 | 1 406 | 6 010 | 2 189 |
| 10 | **Marhamat tumani** | 6 525 | 5 410 | 1 115 | 5 504 | 1 970 |
| 11 | **Oltinko'l tumani** | 4 230 | 3 585 | 645 | 3 580 | 1 204 |
| 12 | **Paxtaobod tumani** | 6 931 | 5 621 | 1 310 | 5 850 | 2 010 |
| 13 | **Ulug'nor tumani** | 1 890 | 1 520 | 370 | 1 530 | 545 |
| 14 | **Xo'jaobod tumani** | 4 415 | 3 590 | 825 | 3 710 | 1 292 |
| 15 | **Shahrixon tumani** | 14 315 | 11 960 | 2 355 | 11 980 | 4 620 |
| 16 | **Xonobod shahri** | 4 205 | 2 890 | 1 315 | 3 837 | 2 550 |
| | **JAMI:** | **104 417** | **85 205** | **19 212** | **86 665** | **32 332** |

Migrantlarning 55,6 foizi (58 091 nafar) 6 oydan 12 oygacha va undan ortiq muddatga xorijda bo'lmoqda. Pedagogik jihatdan bu muddat bola ruhiyatida "ota-ona obrazi"ning xiralashishi va masofaviy tarbiyaning samaradorligi pasayishi uchun yetarli davr hisoblanadi.

Maqsad omili: Ishlash maqsadidagilar 83% (86 665 nafar) bo'lsa-da, 1 458 nafar (1,4%) yoshlar ta'lim olish maqsadida xorijda yurishi aniqlandi. Ta'lim migratsiyasi yuqori darajadagi akademik va pedagogik kapitalning milliy muhitga kirib kelishi uchun ko'prik hisoblanadi. Olingan natijalarni pedagogika nazariyasi va etnopedagogikaning konseptual qoidalari asosida muhokama qilish quyidagi xulosalarni ilgari surishga imkon beradi.

1. **"Translokal oila" va ijtimoiy-pedagogik deprivatsiya:** Tadqiqot ko'rsatganidek, migrantlarning 74,5 foizi faol mehnat va oila qurish (18–45 yosh) davridadir. Ota yoki onaning uzoq vaqt davomida oilada bo'lmasligi natijasida oilada "pedagogik disfunksiya" yuzaga keladi. Bu holat farzandlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga, surrogat tarbiyachilar (bobo, buvi yoki qarindoshlar) qaramog'ida axloqiy nazoratning susayishiga olib keladi.
2. **"Gender transformatsiyasi"ning etnopedagogik dialektikasi:** Viloyat bo'yicha 19 212 nafar ayollarning mehnat migratsiyasida bo'lishi an'anaviy o'zbek oilasidagi pedagogik mas'uliyat tizimini o'zgartirmoqda. Bir tomondan, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligi ortsa, ikkinchi tomondan, oila o'chog'i va onalik tarbiyasi instituti zaiflashadi.
3. **"Migratsion pedagogik transfer":** Biz taklif etayotgan modelga ko'ra, migrantlar (xususan, 32 332 nafar yoshlar) xorijda nafaqat moddiy daromad, balki mehnat intizomi, texnologik ko'nikmalar, chet tillarini bilish va huquqiy madaniyat shaklidagi "ijtimoiy-pedagogik kapital" yig'adilar. Vatanga qaytgach, ular oilada va mahallada ushbu ijobiy tajribani yoshlarga o'tkazuvchi "pedagogik mediatorlar" sifatida namoyon bo'lishadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan pedagogik-statistik tahlil ko'rsatdiki, mehnat migratsiyasi – bu faqat iqtisodiy jarayon emas, balki oilaviy tarbiya tizimini, gender vazifalarini va yoshlar ijtimoiylashuvini tubdan o'zgartiruvchi pedagogik omildir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy-pedagogik tavsiyalar ilgari suriladi:

1. **Migrantlar oilalari uchun "Darslik va masofaviy pedagogik qo'llab-quvvatlash" tizimini yaratish:** Ota-onasi xorijda bo'lgan o'quvchilarni "ijtimoiy yetimlik"dan himoya qilish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Masofaviy pedagogik psixolog" va "Elektron oilaviy pedagogika" platformalarini joriy etish.
2. **"Migratsion pedagogik transfer" modelini amaliyotga tatbiq etish:** Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarining ijobiy ijtimoiy va kasbiy tajribalarini (texnologik savodxonlik, mehnat madaniyati) mahallalarda va kasb-hunar maktablarida yoshlar o'rtasida ommalashtirish bo'yicha "Pedagogik adaptatsiya markazlari"ni tashkil etish.
3. **Etnopedagogik va gender muvozanatni saqlash:** Mehnat migratsiyasidagi ayollarning farzandlari tarbiyasini tizimli monitoring qilish va bobo-buvilarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshiruvchi etnopedagogik treninglarni tashkil etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бауман З. Глобализация. Последствия для человека и общества. – Москва: Весь Мир, 2004. – С. 81–85.
2. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. – Москва: Прогресс-Традиция, 2013. – 304 с.
3. Bo'ronov S. S. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining transformatsiyasi: Fals. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – B. 18–22.
4. Рязанцев С. В. Трудовая миграция в странах СНГ: тенденции и регулирование. – Москва: ИСПИ РАН, 2008. – С. 142–145.
5. Abdullayev B. M. Mehnat migratsiyasining aholi demografik va yosh tuzilmasiga ta'siri (Andijon viloyati misolida) // Ijtimoiy fikr. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 56.
6. Abdullaev B. M. Andijon viloyatida migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy unifikatsiyasi. Monografiya. – Andijon, 2026. – B. 4–8.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №8(3)**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.